



FORMATION OF THE SCHOOL OF SUFI STUDIES: NAJMIDDIN KOMILOV AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE

Bobomurod Adilov

Researcher at the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15737959>

ARTICLE INFO

Received: 18th June 2025

Accepted: 24th June 2025

Online: 25th June 2025

KEYWORDS

Sufi studies, scientific school, Najmiddin Komilov, philosophy of Sufism, Sufi literature, history of Sufism, hermeneutics of Sufism, scientific heritage, comparative Sufi studies, philosophy of irfan, Uzbek school of Sufi studies, scientific methodology, scientific principles.

ABSTRACT

This article analyzes the formation and development of the modern Uzbek scientific school of Sufi studies. The scientific activity of Professor Najmiddin Komilov, his main works in the field of Sufi studies and research methodology are studied in detail. The invaluable contribution of the scientist to the study of the history, philosophy and literature of Sufism during the years of independence of Uzbekistan has been determined. The features of N. Komilov's school of Sufi studies, principles and methods of research, scientific activities of his students and followers are also covered in detail. The article indicates the main criteria for the scientist's activity as the founder of the scientific school of Sufi studies.

ФОРМИРОВАНИЕ ШКОЛЫ СУФИЕВЕДЕНИЯ: НАДЖМИДДИН КОМИЛОВ И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ

Адилов Бобомурод Бекмуродович

Соискатель Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15737959>

ARTICLE INFO

Received: 18th June 2025

Accepted: 24th June 2025

Online: 25th June 2025

KEYWORDS

суфиеведение, научная школа, Наджмиддин Комилов, философия суфизма, суфийская литература, история суфизма, герменевтика суфизма, научное наследие, сравнительное суфиеведение, философия ирфан, узбекская школа суфиеведения, научная

ABSTRACT

В данной статье анализируется становление и развитие современной узбекской научной школы суфиеведения. Подробно изучена научная деятельность профессора Наджмиддина Комилова, его основные труды в области суфиеведения и методология исследования. Определен неоценимый вклад ученого в изучение истории, философии и литературы суфизма в годы независимости Узбекистана. Также подробно освещены особенности школы суфиеведения Н. Комилова, принципы и методы исследования, научная деятельность его учеников и последователей. В статье указаны основные критерии деятельности ученого как основателя научной школы суфиеведения.



методология, научные
принципы.

TASAVVUFSHUNOSLIK MAKTABINING SHAKLLANISHI: NAJMIDDIN KOMILOV VA UNING ILMIY MEROSI

Adilov Bobomurod Bekturodovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15737959>

ARTICLE INFO

Received: 18th June 2025

Accepted: 24th June 2025

Online: 25th June 2025

KEYWORDS

Tasavvufshunoslik, ilmiy
maktab, Najmiddin Komilov,
tasavvuf falsafasi, tasavvuf
adabiyoti, tasavvuf tarixi,
tasavvuf germeneytikasi, ilmiy
meros, qiyosiy
tasavvufshunoslik, irfon
falsafasi, o'zbek
tasavvufshunoslik maktabi,
ilmiy metodologiya, ilmiy
prinsiplar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tasavvufshunoslik ilmiy maktabining shakllanishi va rivojlanish yo'li tahlil etilgan. Professor Najmiddin Komilovning ilmiy faoliyati, uning tasavvufshunoslik sohasidagi asosiy asarlari va tadqiqot metodologiyasi chuqur o'rganilgan. Olimning O'zbekiston mustaqilligi yillarida tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotini o'rganishga qo'shgan beqiyos hissasi aniqlangan. Shuningdek, N. Komilov tasavvufshunoslik maktabining o'ziga xos xususiyatlari, tadqiqot prinsiplari va metodlari, uning shogirdlari va izdoshlarining ilmiy faoliyati ham atroflicha yoritilgan. Maqolada olimning tasavvufshunoslik ilmiy maktabi asoschisi sifatidagi faoliyatining asosiy mezonlari ko'rsatilgan.

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, o'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, uni keng jamoatchilikka etkazish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ana shunday muhim vazifalardan biri tasavvuf ta'limoti va uning tarkibida rivojlangan irfon falsafasi hamda tasavvufiy adabiyotni har tomonlama chuqur o'rganish edi. Sovet davrida ilmiy jihatdan tadqiq etilishi ta'qiqlangan tasavvuf ta'limoti aslida 1200 yildan ortiq tarixga ega ulkan ma'naviy xazina hisoblanadi. Ushbu sohani ob'ektiv va xolisona o'rganish, uni ilmiy asosda tadqiq etish uchun tasavvufshunoslik ilmiy maktabining shakllanishi zarur edi.

O'zbekistonda tasavvufshunoslik ilmiy maktabining vujudga kelishi bevosita respublikaning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan boshlandi. Mamlakatda diniy va milliy qadriyatlarni tiklash jarayoni jadallashdi, tarixiy xotirani qayta tiklash, milliy va islomiy qadriyatlarni o'rganish borasida ilk qadamlar qo'yildi. Bu yo'nalishda taniqli o'zbek adabiyotshunos olimi, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov (1937-2012) tomonidan katta ishlar amalga oshirildi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabining shakllanishi, uning asoschisi Najmiddin Komilovning ilmiy merosini tahlil qilish va ushbu maktabning o'ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili



Najmiddin Komilovning tasavvufshunoslik maktabini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarni tadqiq etishda biz yondashuvlarning xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. G. Navro'zova o'zining «Tasavvufshunoslik falsafasi maktabini yaratgan olim» nomli maqolasida o'z ustozini falsafa fanlari doktori, professor Muhammad Boltaevni «O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabining asoschisi» sifatida ko'rsatishga harakat qiladi [2]. Aynan shu ilmiy anjuman materiallari to'plamidan joy olgan Zamira Is'hoqovaning «Najmiddin Komilov – o'zbek tasavvufshunoslik ilmiy maktabining asoschisi» nomli maqolasida esa professor Najmiddin Komilov O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabining asoschisi sifatida tanishtiriladi [3].

Biroq faktlarni chuqur tahlil etish natijasida N. Komilovning tasavvufshunoslik ilmiy maktabi asoschisi sifatidagi roli namoyon bo'ladi. G.Navro'zovaning bergan ma'lumotiga qaraganda, M. Boltaevning tasavvuf falsafasiga oid «Zorotushtraning tasavvufiy ta'limoti» [4] va «Tasavvuf psixologiyasi» [5] nomli ikki asari 2005 yilda Toshkent va Buxoroda nashr etilgan ekan. Holbuki, N. Komilovning bevosita tasavvuf ta'limoti tadqiqiga bag'ishlangan «Tasavvuf» nomli ikki jildlik ilk monografiyasi 1996 va 1999 yilda nashr etilgan. Demak, N. Komilov M. Boltaevdan salkam 10 yil oldin tasavvufga oid ilk tadqiqotlarni nashr ettirgan ekan. N. Komilovning tasavvuf adabiyoti va she'riyatiga oid ilk mulohazalari uning fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun 1970 yilda yozib yoqlalgan «Ogahiyning tarjimonlik mahorati» [6] mavzusidagi dissertatsiya ishida, keyinroq, 1988 yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozib yoqlagan «Xorazm tarjima maktabi» [7] mavzusidagi dissertatsiya ishida ham namoyon bo'lgani ma'lum.

Tasavvufshunoslikda ilmiy maktab asoschisi masalasi ilk marotaba 2002 yilda J. Xolmo'minovning «Eronning oliy mukofoti sovrindorlari. Najmiddin Komilov» nomli maqolasida [8], 2004 yilda o'zbek sharqshunos olimlari M. Abdusamatov va J. Xolmo'minov tomonidan fors tilida yozilgan va Eronda nashr etilgan «O'zbekiston eronshunoslari» nomli kitobida, 2005 yilda A. Qamarzoda, A. Vafoiy va J. Xolmo'minov tomonidan yozilgan va Eronda nashr etilgan «Donishnomai zabon va adabiyoti forsii O'zbekiston (Qarni bistum to kunun)» [9] nomli ensiklopediyada o'z hallini topgan va mualliflar professor N. Komilovni O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabining tom ma'nodagi asoschisi sifatida e'tirof etishgan [10].

2007 yilda sharqshunos va navoiyshunos olimlar Suyima G'anieva va Olimjon Davlatovning professor Najmiddin Komilovning 70 yilligi yubileyi munosabati bilan tojik tilida yozilgan «Mo baroi vasl kardan omadem» (Mo birlashtirish uchun keldik) nomli maqolasida ham shu mazmun ta'kidlangan edi [11].

N. Komilov tasavvufshunoslik ilmiy maktabining shogirdlaridan falsafa fanlari doktori, professor Z. Is'hoqova o'zining «O'zbekiston falsafa tarixi rivojida Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik maktabining o'rni va izdoshlik an'analari» nomli maqolasida professor N. Komilovning qiyosiy tasavvufshunoslik ilmiy maktabini yaratish va shogirdlarini tayyorlash borasidagi faoliyatini alohida yoritgan [52].

Agar «ilmiy maktab asoschisi» degan faxriy unvonga qandaydir me'yorlar belgilash lozim bo'lsa, unda taxminan quyidagi me'yorlarni sanab o'tish mumkin:

1. Ilmiy maktab asoschisining muayyan bir ilm yo fan sohasini birinchi bo'lib boshlab berishi.
2. Ilmiy maktab asoschisi boshlab bergan ilm yo fan sohasiga oid muntazam tadqiqot ishlari olib borishi va nashr ettirishi.



3. Ilmiy maktab asoschisi boshlab bergan ilm yo fan sohasining metodologik asoslarini ishlab chiqishi.
4. Ilmiy maktab asoschisi nashr etgan tadqiqot ishlarining respublika ilmiy jamoatchilik va ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan e'tirof etilishi.
5. Ilmiy maktab asoschisi nashr etgan tadqiqot ishlarining xorijiy mutaxassislar va xorijdagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan e'tirof etilishi.
6. Ilmiy maktab asoschisi nashr etgan tadqiqot ishlarining ommaviylashishi.
7. Ilmiy maktab asoschisi boshlab bergan ilm yo fan sohasi bo'yicha salohiyatli shogirdlar va ilmiy kadrlar tarbiyalashi.
8. Ilmiy maktab asoschisi an'alarining shogirdlar tomonidan davom ettirilishi.
9. Ilmiy maktab shogirdlari va izdoshlari olib borgan tadqiqotlarning respublika va xorij mamlakatlarida e'tirof etilishi.
10. Ilmiy maktab shogirdlarining ustoz sifatida iqtidorli shogirdlar chiqarishi.

Najmiddin Komilov ilmiy merosi va unga ergashgan tasavvufshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini sinchiklab ko'zdan kechirar ekanmiz, Najmiddin Komilovning O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabi asoschisi ekanligiga amin bo'lamiz. Yuqorida ko'rsatilgan me'yorlar uning ilmiy maktab asoschisi sifatidagi faoliyatiga to'la mos keladi.

Tahlil va natijalar

Najmiddin Komilov (1937-2012) - O'zbekistonning taniqli adabiyotshunosi, manbashunosi va tasavvufshunosi, filologiya fanlari doktori, professor, mustaqillik yillarida ilm-fanni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan ziyolilardan biridir. U yuksak ilmiy salohiyat bilan birga insoniy fazilatlariga ega shaxs bo'lib, davlat idoralarida mas'ul lavozimlarda ishlagan bo'lsa-da, nihoyatda xoksorona yashagan, ibratli va mazmunli hayot kechirgan.

N. Komilovning tasavvuf bo'yicha ilk tadqiqotlari 1970 yildayoq boshlangan bo'lsa-da, uning tasavvufshunoslik sohasidagi asosiy ilmiy faoliyati mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. U umrining so'nggi 18 yilini tasavvuf namoyandalari faoliyatini tadqiq etish, tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotini o'rganishga bag'ishladi. Olimning asarlarida Farididdin Attor, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Ibn Arabiy, Aziziddin Nasafiy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi buyuk mutafakkirlarning tasavvufiy qarashlari chuqur tahlil etilgan.

N. Komilovning asosiy asarlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- «Najmiddin Kubro» (1995)
- «Tasavvuf. (Sharq falsafiy tafakkuri tarixidan. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob)» (1996)
- «Tasavvuf. (Tavhid asrori. Ikkinchi kitob)» (1999)
- «Faqr nuri porlagan qalb. Alisher Navoiyning forsiy qasidalari» (2001)
- «Komil inson - millat kelajagi» (2001)
- «Xizr chashmasi» (2005)
- «Tasavvuf» (to'ldirilgan nashri, 2009)
- «Ma'nolar olamiga safar» (2012)

Uning O'zbekiston va xorij mamlakatlarida nashr etilgan tasavvufga oid 200 dan ortiq ilmiy maqolalari, turli ilmiy va adabiy asarlarga yozgan so'zboshilari, bir turkum tasavvufiy manbalar tarjimasini O'zbekiston ilm-fan xazinasiga qo'shilgan qimmatli hissadir. Ayniqsa, uning



ikki jildlik «Tasavvuf» asari O'zbekistonda islom falsafasi va tasavvuf bo'yicha eng ko'p o'qilgan va eng ko'p iqtibos olingan kitob bo'lib qoldi.

Olim Farididdin Attorning «Ilohiynoma», Sulton Valadning «Maorif», Aziziddin Nasafiyning «Zubaydat ul-haqoyiq», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy» kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, tasavvuf ta'limotini O'zbekiston kitobxonlari uchun yanada kengroq ochib bergan.

N. Komilov xorijiy mamlakatlar ilmiy doiralarida ham keng tanilgan olim edi. Masalan, u Eron Islom Respublikasi Prezidentining maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan. 2001-2012 yillar davomida Eron Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Madaniyat vakolatxonasi tomonidan nashr etilgan «Sino» jurnalida N. Komilovning tasavvuf adabiyoti va falsafasi bo'yicha maqolalari muntazam chop etilib turgan. Shuningdek, Eronda nashr etilgan «Donishnomai zabon va adabiyoti forsii O'zbekiston» nomli ensiklopediyada N. Komilov hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi maqola joy olgan. Bu faktlar N. Komilovning nafaqat O'zbekistonda, balki xorijda ham tasavvufshunoslik sohasida etuk olim sifatida e'tirof etilganidan dalolat beradi.

N. Komilov tasavvufshunoslik ilmiy maktabining o'ziga xos jihatlarini quyidagi prinsiplarda ko'rish mumkin:

1. **Ilmiylik** – tasavvuf hodisalarini ob'ektiv, xolisona, ilmiy dalillarga asoslangan holda o'rganish.
2. **Xolislik** – tasavvuf ta'limotini har qanday mafkuraviy ta'sirlardan xoli holda tadqiq etish.
3. **Haqqoniylik** – manbalarni aniq va to'g'ri talqin etish, haqiqatni ochib berish.
4. **Diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi** – tasavvufni o'rganishda ham diniy, ham dunyoviy ilmlardan foydalanish, ularni uyg'unlashtirish.
5. **Tasavvufiy-irfoniy asl manbalarga tayanish** – tahlillarni birlamchi manbalar asosida olib borish.
6. **Tarixiylik va tarixiy manbalarga tayanish** – tasavvuf hodisalarini tarixiy kontekstda o'rganish.
7. **Kuchli va ishonchli dalillar bilan asoslash** – har bir xulosani ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

N.Komilovning tasavvufshunoslik maktabi tasavvuf adabiyoti, tasavvuf falsafasi va tasavvuf tarixi bo'yicha bir qator etuk olimlarni tarbiyalab chiqargan. Bularning bir qismi bevosita uning ilmiy rahbarligi ostida tasavvuf bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsalar, bir qismi uning ta'limidan bahra olgan olimlardir. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sultonmurod Olim

S. Olimning tasavvuf va irfoniy adabiyotga oid ilk mulohazalari 1991 yildan boshlangan. Uning «Shayxlar karomati. Navoiy va ekstrasenslar» maqolasida Alisher Navoiy asarlarida ayrim shayxlarning g'ayrioddiy faoliyatiga oid nuqtalar tahlil etilgan. Bu maqola o'zbek matbuotida tasavvuf masalalarini yoritishga darcha ochishga xizmat qilgan ilk chiqishlardan biridir.

S. Olimning asosiy asarlari:

- «Ishq, oshiq va ma'shuq» (1992)
- «Naqshband va Navoiy» (1996)
- «Lison ut-tayr»da naqshbandiya» (1996)



- «Uch buyuk tariqat» (1994)
S. Olim tasavvuf adabiyoti, xususan, Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarini o'rganish borasida muhim tadqiqotlar olib borgan.

2. Ja'far Xolmo'minov

J. Xolmo'minov O'zbekiston tasavvufshunosligida tasavvuf falsafasi va germeneytikasi yo'nalishini boshlab bergan olimdir. U 1999-2002 yillarda N. Komilov ilmiy rahbarligi ostida «Mavlono Abdurahmon Jomiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini tayyorlagan, 2020 yilda esa «Vahdat ul-vujud falsafasi va uning Naqshbandiya ta'limotiga ta'siri» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

J. Xolmo'minov tomonidan «Jomiy va vahdat ul-vujud ta'limoti», «Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta'limoti», «Qiyosiy tasavvufshunoslik», «Tasavvuf ontologiyasi», «Философия и Суфизм: противоречие и взаимосвязи» nomli monografiyalar, «Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi» nomli o'quv qo'llanmasi, «Irfon falsafasi izohli lug'ati» nashr etilgan. U O'zbekiston, Eron, Qozog'iston, Tojikiston, Hindiston, Turkiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda 300 ga yaqin ilmiy maqolalari chop etilgan.

J. Xolmo'minov «qiyosiy tasavvufshunoslik» nomli yangi ilmiy yo'nalishni asoslab bergan. Bu yo'nalish falsafa, qiyosiy dinshunoslik, islomshunoslik, manbashunoslik, tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va etnologiya fanlarining tutash nuqtalarida hosil bo'lgan yangi fan sohasi hisoblanadi.

3. Zamira Is'hoqova

Z. Is'hoqova 2007 yilda N. Komilov ilmiy rahbarligida «Tasavvuf ta'limotida valiylik tushunchasining diniy-falsafiy talqini» mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgan, 2022 yilda esa «Irfon va uning Sharq falsafiy tafakkuri rivojida o'rni (X-XIII asrlar)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Z. Is'hoqovaning asosiy asarlari:

- «Tasavvuf ta'limotida oriflik va valiylik talqini» (2011)
- «Shayx Najmiddin Kubro» (2013)
- «Mashrab» (2015)
- «Komillik kaliti» (2016)
- «Xoja Ahror Valiy» (2017)
- «So'fi Oллоhyor» (2018)

4. Olimjon Davlatov

O. Davlatov taniqli sharqshunos va navoiyshunos sifatida tanilgan bo'lib, u 2000 yilda N. Komilov shogirdligiga kirgan. O. Davlatov Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganib, 2011 yilda Navoiyning to'rt jildlik «Xazoyin ul-ma'oni» devonlarini lug'at va izohlar bilan qayta nashrga tayyorladi. Shuningdek, u «Alisher Navoiy: qomusiy lug'at» (2016) tuzilishiga boshchilik qilgan va «Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat: hikoyatlar va hidoyatlar» (2019) kitobini nashr ettirgan. O. Davlatovning yana bir muhim xizmati N. Komilov boshlab qo'ygan, ammo yakunlamagan Aziziddin Nasafiyning «Insoni komil» kitobini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirishi bo'ldi.

5. Komiljon Rahimov

K. Rahimov Buxoro tasavvuf maktabi, Xojagon-Naqshbandiya tariqati tarixi va Naqshbandiya ta'limotiga oid bir qator tasavvufiy manbalar tadqiqotchisidir. 2007-2014



yillarda u N. Komilov rahbarligida mustaqil tadqiqotchi sifatida ishlagan, 2018 yilda «Mustamliy Buxoriyning «Sharh at-Ta'arruf» asari hamda uning XI–XV asrlar Movarounnahr va Xuroson tasavvuf manbalariga ta'siri» mavzusida nomzodlik, 2022 yilda esa «Xojagon-naqshbandiya ta'limotining ildizlari va shakllanish manbalari (IX–XIV asrlar)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

K. Rahimovning asosiy asarlari:

- «Xojagon tariqati va Buxoroda irfoniy-falsafiy ilmlar rivoji (IX–XV asrlar)» (2011, N. Komilov bilan hammualliflikda)
- «Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar)» (2020)
- «Xojagon-naqshbandiya tariqati va etti pir» (2020)
- «Xojagon-naqshbandiya tariqati va iqtisodiyot» (2022)
- «Xojagon-naqshbandiya tariqati pirlariga bag'ishlangan vaqflar» (2021)
- «Oltin silsila: xojagon-naqshbandiya tariqati etti piri» (2021)

K. Rahimovning tadqiqotlari xorijiy mamlakatlarda ham keng tarqalgan bo'lib, uning asarlari rus, tojik, qozoq, ozarbayjon, turk va arab tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan.

N. Komilovning shogirdlari va izdoshlarining ilmiy faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ustozlarining tasavvuf ta'limotini o'rganish borasidagi an'alarini davom ettirib, uni yanada rivojlantirmoqdalar. Ular tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotining turli jihatlarini chuqur tadqiq etib, O'zbekistonda tasavvufshunoslik maktabining ilmiy salohiyatini oshirmoqdalar.

Shogirdlar va izdoshlar tomonidan ustoz N. Komilovga bag'ishlab qator ilmiy ishlar, she'riy va publitsistik bag'ishlovlar ham nashr etilgan. Jumladan, J. Muhammad Termiziyning «Tajalliy» nomli poemasi, S. Olimning «O'zi bir olam edi...» nomli maqolasi, B. Omonning «Ustoz, murabbiy va do'st» nomli maqolasi, Z. Is'hoqovanning «O'zbekiston falsafa tarixi rivojida Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik maktabining o'rni va izdoshlik an'analari» nomli maqolasi, O. Davlatov tomonidan N. Komilov xotirasiga bag'ishlangan Hofiz Sheroziy «Devon»i nashri, J. Xolmo'minov tomonidan ustoz xotirasiga bag'ishlab nashr ettirilgan «Qiyosiy tasavvufshunoslik» monografiyasi shular jumlasidandir. Bu nashrlardan shogirdlar va izdoshlarning ustozga bo'lgan chuqur ehtiromi, ixlos va muhabbati sezilib turadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston tasavvufshunoslik ilmiy maktabining shakllanishi va rivojlanishini tahlil etish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbekistonda tasavvufshunoslik ilmiy maktabi 1990-yillar boshida, respublika mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda shakllandi. Bu davrda tasavvufni ilmiy jihatdan o'rganish, uni keng xalq ommasiga etkazish jamiyat uchun ma'naviy zarurat edi.
2. Tasavvufshunoslik ilmiy maktabining asoschisi professor Najmiddin Komilov bo'lib, u tasavvufni o'rganishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan, bu sohada salmoqli ilmiy ishlarni amalga oshirgan va iqtidorli shogirdlar etishtirgan. N. Komilov sho'ro davrida «diniy-irtijoiy» jarayon sifatida qoralangan tasavvufning asl mohiyatini, uning falsafiy-axloqiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini xolisona ochib bergan.
3. N. Komilov tasavvufshunoslik ilmiy maktabining asosiy tamoyillari ilmiylik, xolislik, haqqoniylik, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligi, tasavvufiy-irfoniy asl manbalarga tayanish,



tarixiylik va kuchli dalillar bilan asoslashdir. Bu tamoyillar tasavvufni har tomonlama chuqur va ob'ektiv o'rganish imkonini bergan.

4. N. Komilov va uning shogirdlari tomonidan tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotini o'rganishda qiyosiy tahlil, germenevtik talqin, tarixiy tahlil kabi metodlar keng qo'llanilgan. Shu bilan birga, qiyosiy tasavvufshunoslik nomli yangi ilmiy yo'nalish ham asoslangan.

5. N. Komilov tasavvufshunoslik ilmiy maktabi bir qator iqtidorli olimlarni tarbiyalab chiqargan. Bugungi kunda Sul-tonmurod Olim, Ja'far Xolmo'minov, Zamira Is'hoqova, Olimjon Davlatov, Komiljon Rahimov kabi olimlar ustoz an'alarini davom ettirib, tasavvuf ta'limoti va ma'naviy merosni o'rganish borasida samarali faoliyat olib bormoqdalar.

6. N. Komilov ilmiy maktabi nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro ilmiy doiralarda ham e'tirof etilgan. Uning shogirdlari va izdoshlari tadqiqotlari turli tillarda chop etilib, xorijiy mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Bu esa o'zbek tasavvufshunoslik maktabi xalqaro ahamiyatga ega ekanligining dalilidir.

7. N. Komilov tasavvufshunoslik ilmiy maktabining eng muhim xususiyatlaridan biri – tadqiqotlarning nazariy jihatdan teranligi va amaliy ahamiyatga egaligidir. Tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy jihatlarini ochib berish orqali bu maktab jamiyatda yuksak ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga, milliy o'zlikni anglashga va yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tasavvuf ta'limotini o'rganish bo'yicha maxsus o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratish, oliy ta'lim muassasalarida «Tasavvuf tarixi», «Tasavvuf falsafasi», «Tasavvuf adabiyoti» kabi maxsus kurslarni kiritish maqsadga muvofiq.

2. N. Komilov ilmiy merosini yanada kengroq o'rganish, uning nashr etilmagan asarlarini chop etish va targ'ib qilishni davom ettirish kerak.

3. Tasavvufshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish, yosh tadqiqotchilarni bu sohaga jalb etish, xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish lozim.

4. Tasavvufning inson kamolotidagi roli, uning ma'naviy-axloqiy ahamiyatini keng xalq ommasiga, ayniqsa yoshlarga etkazish bo'yicha targ'ibot ishlarini yanada faollashtirish zarur.

5. N. Komilov tavalludining 85 yilligi (2022) va 90 yilligi (2027) munosabati bilan respublika miqyosida ilmiy anjumanlar tashkil etish, uning nomidagi medal ta'sis etish, mukofot joriy etish, uning nomi bilan bog'liq muzey tashkil qilish ham tasavvufshunoslik maktabi an'alarini davom ettirishga xizmat qilar edi.

References:

[1] «Tasavvufshunoslik falsafasi» iborasi ma'no va mantiq jihatidan to'g'ri emas. Bu o'rinda «Tasavvuf falsafasi» iborasi qo'llanishi kerak edi.

[2] Navro'zova G. Tasavvufshunoslik falsafasi maktabini yaratgan olim / «O'zbekistonda falsafa tarixi maktabi va uchinchi Renessans» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022 yil 17 may. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. – Toshkent, 2022. – B.47-50.

[3] Isoqova Z. O'zbekiston falsafa tarixi rivojida Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik maktabining o'rni va izdoshlik an'analari / «O'zbekistonda falsafa tarixi maktabi va uchinchi



- Renessans» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022 yil 17 may. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. – Toshkent, 2022. – B.258-262.
- [4] Boltaev M. Zorotushtraning tasavvufiy ta'limoti. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2005. – 122 b.
- [5] Boltaev M. Tasavvuf psixologiyasi. – Buxoro: «Buxoro», 2005. – 118 b.
- [6] Komilov N. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. / Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1970. – 150 b.
- [7] Komilov N. Xorazm tarjima maktabi. / Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1970. – 300 b.
- [8] Xolmo'minov J. Eronning oliy mukofoti sovrindorlari. Najmiddin Komilov. // «Sino». Ilmiy-adabiy, falsafiy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy uch oylik jurnal. – 2002, yoz, №6. – B.5-6.
- [9] (كنون تا بیستم قرن) ازبکستان فارسی ادبیات و زبان دانشنامه. الهی نعیم دکتر, اصل ادیل دکتر, قهرمانی العلی ابغ دکتر. – (۲۰۰۵) ۱۳۸۴, «الهدی» الملی بین انتشارات: تهران ۵۱۲-۲۱۲ ص. –
- [10] Abdusamatov M, Xolmo'minov J. Ironshenosone O'zbekiston. – Tehron: Enteshorote beynulmelalie «Al-Hudo», 1384 (2004). – S.173.
- [11] G'anieva S., Davlatov O. Mo baroi vasl kardan omadem. / «Ovozi to'chik», 2007 yil 7 noyabr.
- [12] Olim S. Shayxlar karomati. Navoiy va ekstrasenlar. // «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1991 yil, 1 fevral.
- [13] Olim S. Munda foniy bo'lmay ish o'lmas tamom. // "Sharq yulduzi", 1991 yil, №2.
- [14] Sa'diy M. Erkin fikr almashuv. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1991 yil, 22 mart.
- [15] Olim S. Ishq, oshiq va ma'shuq. – Toshkent: "Fan", 1992.
- [16] Qashqirli Q. Tahlil mashaqqatlari. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1993 yil, 20 avgust.
- [17] Namoz M. So'fiyona ishq talqini. // Vatan, 1993 yil, 19 – 26 may.
- [18] Olim S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
- [19] Olim S. Uch buyuk tariqat (Risola). / G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. Muallif-tuzuvchi Zufarjon Jo'raev. – Toshkent: "O'zbekiston", 1994. – B. 90 – 124.
- [20] Olim S. "Lison ut-tayr"da naqshbandiya (Risola). / Naqshband va Navoiy. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996. – B. 107 – 140.
- [21] N. Jo'raev. Inson fenomeni. / "Turkiston" gazetasi. 2004 yil, 21 aprel.
- [22] N. Jo'raev. Tavallodan munojotgacha. // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013, 6-son.
- [23] N. Jo'raev. Taxayyul, tasavvur, tafakkur. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015.
- [24] N.Jo'raev. Tasavvufshunoslikda yangi yo'nalish. / J. Xolmo'minov. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", "Yosh avlod matbaa", 2021. – B.3-12.
- [25] Jo'raev N. Nitshe Sharqdan olgan najot. // "Sharq yulduzi", 2023, №3.
- [26] Jo'raev N. Qalb – javhar, ruh – yog'du (Abu Ali ibn Sinoning inson falsafasi). // "Jahon adabiyoti", 2025/1(332). – B.181-199.
- [27] Xolmo'minov Ja'far Muhammadievich / O'ZBEKISTONNING TANIQLI OLIMLARI ENSIKLOPEDIYASI. 2024 yil to'plami. - Toshkent: "Science and Innovation". - B.403-406.
- [28] Xolmo'minov J. Jomiy va vahdat ul-vujud ta'limoti (Monografiya). – Toshkent, "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.



- [29] Xolmo'minov J. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta'limoti (Ibn al-Arabiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida). Monografiya. – Toshkent, "Tafakkur", 2020.
- [30] Xolmo'minov J. Qiyosiy tasavvufshunoslik (Monografiya). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", "Yosh avlod matbaa", 2021.
- [31] Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi (Monografiya). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", "Yosh avlod matbaa", 2021.
- [32] Xolmuminov Dj. Filosofiya i Sufizm: protivorechie i vzaimosvyazi. – Tashkent, 2025.
- [33] Xolmo'minov J. Tasavvuf falsafasi. 1-qism. Tasavvuf ontologiyasi (O'quv qo'llanma). – Toshkent: "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti", "Yosh avlod matbaa", 2021.
- [34] Is'hoqova Z. Tasavvuf ta'limotida oriflik va valiylik talqini. Monografiya. – Toshkent: "Abu matbuot-konsalt", 2011. – 296 b.
- [35] Is'hoqova Z. Komillik kaliti. Monografiya. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – 252 b.
- [36] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Devon. 4 jildlik. J. 1. G'aroyib us-sig'ar. Matnni lug'at va izohlar bilan qayta nashrga tayyorlovchi O. Davlatov.– Toshkent: TAMADDUN, 2011. – 786 b.
- [37] Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi / Tarjimonlar: N. Komilov, O. Davlatov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU. (240 bet).
- [38] Komilov N., Rahimov K. Xojagon tariqati va Buxoroda irfoniy-falsafiy ilmlar rivoji (IX–XV asrlar). Monografiya. - Toshkent, 2011.
- [39] Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII – XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr", 2020. – 400.
- [40] Baxtiyor Omon. Noshir daftari. – Toshkent: "Sharq", 2019.
- [41] Hofizi Sheroyin. Devon. Tahiya, tadvin va mullifi lug'otu tavzehot O. Davlatov. – Toshkent: "Tamaddun", 2012.
- [42] Olim S. O'zi bir olam edi... – "Imom al-Buxoriy saboqlari", 2013 yil, 2-son. – B.101-103.
- [43] Ja'far Muhammad. Tajalliy. Majmo'ai she'r. – Toshkand: Intishoroti Davlatii "Doiralulma'orifi millii O'zbekiston", 2008. – 47-49.
- [44] Rahimov K. Xojagon-naqshbandiya tariqati va etti pir. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020. – 168.
- [45] Rahimov K. Oltin silsila: xojagon-naqshbandiya tariqati etti piri. – Toshkent, "Splendid Idea", 2021. – 524.
- [46] Is'hoqova Z. Mashrab. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 128 b.
- [47] Is'hoqova Z. Shayx Najmiddin Kubro. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 136 b.
- [48] Is'hoqova Z. Sh-yo Najmiddin Kubro. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 136 b.
- [49] Is'hoqova Z. Xoja Ahror Valiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 168 b.
- [50] Is'hoqova Z. So'fi Ollohyor. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 145 b.
- [51] Komilov N. Tasavvuf (Birinchi kitob: Tasavvuf yoki komil inson axloqi). – Toshkent: "Yozuvchi", 1996.
- [52] Is'hoqova Z. O'zbekiston falsafa tarixi rivojida Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik maktabining o'rnini va izdoshlik an'analari. / "O'zbekistonda falsafa tarixi maktabi va uchinchi Renessans" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2022 yil 17 may. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. – Toshkent, 2022. – B.258-262.